

ALISHER NAVOIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI

*Sobirova Muxlisa Ergashboy qizi**Andijon Davlat Chet Tillari Instituti talabasi**+99894-145-43-48*

Annotasiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning pedagogik qarashlari ifoda etilgan. Yana Alisher Navoiyning ijodi, tarbiya, yaxshiliklari haqida batafsil yoritilgan.

Kalit soʻzlar: Sharq mutafakkiri, tarbiya haqida, insonparvarlik, sadoqat, oliyanoblik, yaxshilik, ilm, odob.

Oʻtmishdagi buyuk mutafakkirlarning dono fikrlari, oʻgʻitlari, tafakkur mevalari, ijodiy yutuqlarlarini oʻrganish xalqimizning maʼnaviy dunyosini kengaytirish bilan bir qatorda, yosh avlodning barkamol inson boʻlib yetishishida muhim vositalardan biri sanaladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Sharq mutafakkirlaridan biri oʻzbek adabiyotining zabardast siyмосi, komil inson kuylovchisi, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy merosini oʻrganish, undan taʼlim -tarbiya jarayonida foydalanish har bir pedagogning vazifasi hisoblanadi.

Alisher Navoiy ijodi shunchalar serqirradi, uning asarlari tarjimasiga qoʻl urish islom dini gʻoyasi va qarashlari, turkiylar madaniyati, yashash tarzi va soʻzlarning kelib chiqishini sinchiklab oʻrganish talab etiladi. Avvalo, buyuk mutafakkir shoir gʻazallarining asl maʼnosini toʻliq tushunib, his etish kerak.

Navoiy tarbiyaning kuchiga eʼtibor berish bilan birga, kishining qanday odam boʻlib voyaga yetishiga taʼsir koʻrsatadigan boshqa omillarni ham unutmaydi, har bir kishidan yoqimli, ochiq chehra boʻlishini talab qiladi.

Har kimgaki, dahr ichra donolik erur,

Hilm ila anga majlis oroliq zarur

Hazrati Navoiy asarlarining har bir sahifasida komillik zoʻr kuch bilan tashviq etilgan. Shoirning "Araba'in" asarida quyidagi hikmat ayniqsa muhimdir.

El aro yaxshiroq, deding, kimdur,

Eshitib shubha ayla raf andin,

Yaxshiroq bi anu ulus arokim

Yetsa koʻproq ulusga naf andin

Taʼbir joiz boʻlsa, olamda turkiy va forsiy tilda soʻzlovchi biron bir inson yoʻqki, u Navoiy sadoqat va eʼtiqod bilan qaramasa "Agar bu ulugʻ zotni avliyo desak avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak shoirlarning sultoni"

I.A. Karimov

Alisher Navoiyning asarlarida tarbiya va insonparvarlik masalalari.

Navoiy ijodining asosini inson va uning ma'naviy dunyosi, muhabbat va go'zallik tushunchalari haqidagi chuqur o'y-xayollar, hayot mazmuni haqidagi fikrlar tashkil etadi. Shoir nazarida muhabbat - bu insonni yomonliklardan va ehtiyojga berilishdan forig' etuvchi ulug'vor axloqiy kuch. U o'zida oliyjanoblik va mardonavor ruhni, vafodorlikni, insondagi barcha imkoniyatlar va ma'naviy kuchlarning faol namoyon bo'lishi yo'llarini aks ettiradi. Inson ruhining go'zalikka intilishi va bu go'zallik uchun axloqiy jasorat ko'rsatishga tayyorgarlik Navoiyda shoirning ijodiy tasavvurida yaratilgan yuksak ulug'vorlik ko'rinishida tasvirlanadi. Alisher Navoiyning yozishicha, faqatgina inson Allohning ilmu hikmatiga oshno qilingan ("Qilding ani orifi ul ma'rifat"), faqat odamga ma'rifat ganji ishonib topshirilgan. Navoiy Qur'on oyatlariga ishora etib, inson ulug'ligini bunday ta'rif etadi:

"Karranno)- keldi manoqib anga

"Ahsani taqvim "-munosib anga

Alisher Navoiy insonga birinchi navbatda hayotdagi kirdikoriga qarab baho bergan. Inson jamiyatga naf keltirishi, foydali ishlari bilan qadrli. Boshqalarga ziyon yetkazadigan, jamiyat tengligi va osoyishtaligini buzadigan, siyrati suratiga to'g'ri kelmaydigan kimsalar chin inson emas. U jamiyatning har bir a'zosidan -shohmi, gadomi - inson nomiga munosib bo'lishlikni talab etadi. Navoiyning fikricha, yaxshilikning, odamiylikning mezoni -bu xalq g'am tashvishi bilan yashashdir:

Odamiy ersang, demagil odamiy

Oniki, yo'q xalq g'amidin g'ami.

O'rta asrning buyuk adibi Alisher Navoiyning turkiyzabon xalqlar, xususan o'zbek xalqining ma'naviy ravnaqi yo'lidagi mamlakat obodonchiligi, el-yurtning faravonligi yo'lidagi faoliyati beqiyosdir. Mirzo Muhammad Haydarning yozishicha, Navoiyning har yilgi daromadi o'n sakkiz ming "shohruhiy" dinorga teng bo'lgan. Bu mablag'ning deyarli hammasini u xayrli ishlarga, shu jumladan jamoat qurilishlarga sarf etgan.

U birgina Hirot shahri yaqinida Injil anhuri bo'yida bir qancha binolar: "Ixlosiya" madrasasi, uning qarshisida "Xolisiya" xonaqohi, "Qudsiya" jome' masjidi "Shifoiya" davolash uyi, "Safoiya" hammomi va ular qoshiga toshhovuz qurdiradi. Binokorlik ishlari Hirotning qator mohir me'mor, muhandis, banno va naqqoshlari tomonidan bajariladi.

Alisher Navoiyning hayoti va ijodini o'qib o'rganar ekanmiz, uning naqadar komil inson ekanligini bilamiz. Ayniqsa, beva-bechoralarga qo'ldan kelganicha yordam qilgan.

Allomaning pedagogik qarashlari o'zidan oldin o'tgan olimlarning bu boradagi ilg'or ta'limotiga, shuningdek, komil insonni tarbiyalashga oid an'anaviy Sharq xalqlari ta'lim-tarbiya yo'riqlariga asoslanadi. Alisher Navoiy bobomizning dono

fikrlari mustaqillik davrida ham hayot darsligi bo'lib xizmat qilib, yoshlarimizni barkamol inson sifatida tarbiyalashimizga yordam bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xojjayev B. Umumiy Pedagogika nazariyasi va amaliyoti Darslik. T.: "Sano -standart" nashriyoti, 2017-yil 416 bet.
2. Alisher Navoiy "Xamsa" "Yangi asr avlodi", 2016-yil, 496 bet.
3. Mirzakarimova M. CLIL TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O'QUVCHILARNING TADBIRKORLIK KO'NIKALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION METOD VA VOSITALAR // Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. – 2023. – №. 6. – C. 410-415.
4. Mirzakarimova M. M., Uzoqjonova M. D. Q. O'zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash muammolarini o'rganish va bartaraf qilish // Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 11. – C. 78-83.
5. Mirzakarimova M. M., Uzoqjonova M. D. Q. Scientific and pedagogical activity of Imam al-Bukhari // Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 12. – C. 321-324.
6. Mirzakarimova M. M. et al. "Avesto" va pedagogik fikrlar rivoji // Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 2. – C. 224-228. Retrieved from <https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6696>
7. Mirzakarimova M. M. et al. Pedagogik mahoratning shakllanishi va rivojlanishi // Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 3. – C. 264-269.
8. MADAMINJONOVNA M. M. XORIJIY TILLARNI TADBIRKORLIKKA YO 'NALTIRIB O'QITISHNING DIDAKTIK ASOSLARI // Nova. Pub. – 2022. – C. 1-128.
9. Madaminjonovna M. M. Zamonaviy sharoitlarda umumta'lim fanlarini tadbirkorlikka yo 'naltirib o'qitish tizimi // Science and Education. – 2020. – T. 1. – №. 4. – C. 216-222.
10. Madaminjonovna M. M. Umumta'lim fanlarini tadbirkorlikka yo 'naltirib o'qitish tizimi // Science and Education. – 2020. – T. 1. – №. 4. – C. 97-103.
11. Madaminjonovna M. M. K. L. METHODOLOGY OF EDUCATIONAL TEACHING OF GENERAL SCIENCES. Retrieved from <http://xn--e1aajfpcds8ay4h.com.ua/menus/view/202/>.
12. Mirzakarimova M. EFFECTIVENESS OF STUDENTS' ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES // Академические исследования в современной науке. – 2023. – T. 2. – №. 8. – C. 92-94.
13. Mirzakarimova M. M. The Necessity to Develop Students' Entrepreneurial Skills in English Classes // Telematique. – 2022. – C. 7128-7131.
14. Мирзакаримова М. М. ESSENTIAL COMPOSITION OF ENTREPRENEURSHIP FUNCTIONAL LITERACY // INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL "INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY". – 2020. – T. 1. – №. 1. – C. 63-65.
15. Madaminjonovna M. M. Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies // International Journal of Human Computing Studies. – 2023. – T. 5. – №. 3. – C. 15-17.